

# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> March, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

## FAYNBERG SHE'RLARINING YURAKDAN SOCHILGAN SATRLARI

Ziyoda Saparbayeva Rustamboy qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

[ziyodasaparbayeva@gmail.com](mailto:ziyodasaparbayeva@gmail.com)

Xudoynazarova Dildora Shonazar qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti ingliz tili o'qituvchisi

[xudoynazarovadildora020@gmail.com](mailto:xudoynazarovadildora020@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada rusiyzabon shoir Aleksandr Faynberg ijodining o'ziga xosligi, shoir ijodining xalq va jamiyat hilan hamohangligi, adabiyot atalmish keng bo'stonda ungan chechaklardan biri shubhasiz, Faynberg ekanligi, uning betakror tashbehlari haqida ma'lumotlar uchraydi.

**Kalit so'zlar:** shoirlar so'z yuki, tabiat tasviri, vatan ishq, isyonkor vujud, "Allohning yashirin tovshi", sonet, tarjima ruhiyat, badiiy so'z, "Eski fonus".

Munavvar tong... Yorug' olam... Tong belanchagiga belangancha quyosh olamga asta ta'zim qilmoqda. Yana ko'hna zaminni adabiyot tonggi, she'riyat olami, tong nafasi qurshab oladi. Bu so'z eshinishi bilan ko'z o'ngimda yillar ortidan yillar selday kelgani kabi iste'dod nafasidan yillardan yillarga, dillardan dillarga, ko'ngilgan chiqib, yana sof ko'ngillarga iymonib kirib borayotgan ijodkorlar, ko'ngil egalari beixtiyor gavdalanadi. Chunki hech bir ijodkor yo'qki, Vatanni kuylamasa, tabiatni kuylamasa, she'rni kuylamasa, muhabbatni kuylamasa... Shu qatori o'zbek va rus xalqiga birdek sevimli bo'lgan shoir Faynberg she'riyatida ham muhabbatga, tabiatga yaqinlikni sezishimiz mumkin. Tabiat bilan tillashish asnosida shoirning ko'ngli ham tabiat singari beozor ekanligining guvohi bo'lamiz.

O'qtin-o'qtin ko'z oldimda shoirlar isyon sifatida gavdalanadi. Ha, haqiqiy isyon! Shunday isyonki, adabiyot atalmish bo'stonni o'z she'riyati bilan, she'r dunyosini qalbidagi g'alayonlar bilan boyitib boradi, shunday isyonki, xalq qalbiga erk nafasini yetaklab keladi! Isyonkor vujudida kechayotgan she'r dardi, so'z dardi buning yaqqol ifodasi bo'la oladi. Bu albatta oson ish emas edi, lekin Aleksandr Faynberg buning uddasidan chiqq oldi. She'riyat otashida porillayotgan iste'dodi unga chin ma'noda "ko'maklashdi". Ko'nglida mavjlanayotgan dengiz, daryo bir



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> March, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

zum ham unga tinchlik bermadi, dilidagi g'alayonlar so'z bo'lib, she'r bo'lib otilib chiqaverdi. "Ijodiy jasoratlar"ga qodir edi shoir.

"She'r nima, so'z nima?"-deyishsa,"She'r - qalb amri, yurak dardining qog'ozdagi ifodasi, lekin ayni o'zi emas",- degan bo'lar edim. Faynbergning tesha tegmagan, takrorlanmas tashbehlari kishini mushohadaga chorlaydi. Shoirning "Havaskor tarjimonga" she'rida shunday satrlar bor:

She'r – Allohning tovshi yashirin,

Qulog'ingga urilmoqdadir,

Sho'rtakkina qondek so'z shirin

Dudog'ingda tirilmoqdadir.

Aslida shoirning shoirliigi ham shunda: hech kim o'ylab ko'rmagan narsalarni o'ylash, biror narsaga hamma bir xil nazar bilan qarasa, shoir unga boshqa nazar bilan, o'zga ko'z bilan qarashida namoyon bo'ladi. Bu ko'z-shoirning qalb ko'zi.

Adabiyot - bir butun borliq! Adabiyot-shams! Uning hammani maftun qiluvchi nurlari bor, bu nurlar ijod ahli!

Aleksandr Faynberg o'zining "Varaq" she'rida she'rning yuki haqida so'z yuritadi:

She'r – nafaqat o'qimoq, uqmoq,

She'r – yurakda yangragan tovush.

Qutqargandek Taygada so'qmoq,

Tebrangandek ko'llarda qamish.

Hamda fikrini "Har satrim – jon, har she'rim - yurak", - deb davom ettirar ekan, shunday so'zlar bilan yakunlaydi:

Avlodlarga kelmasin malol,

She'rlarim g'am chekmasin nochor,

Shamol, dengiz va yaproq misol

Nafas olsin, kulsin beg'ubor.

Vatan ishqini hech bir ijodkorni chetlab o'tmaydi, yuragiga abadiy isyon qalab turadigan, ishqini qalbiga g'alayon solib, olg'a borishga undab turadigan yagona muhabbat ham shu bo'lsa kerak. Faynberg "Vatan" sonetida o'z so'zi bilan Vatanga ta'rif beradi:

Quyoshli, to'rtburchak dalalardan to

Tizma tog'largacha cho'zilgan Vatan.

Yo'llarning girdida bo'lib girgitton

Gumbazdek teraklar turalar qator.



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> March, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

Mushfiq yurt. Shu yerda nasl-u nasabim

O‘zbekistondadir xokim, turobim.

Hoy, Yevropa! Seni tanimayman ham.

Ushbu she'rdagi o'xshatishlar, murojaatlar tasviri kishini befarq qoldirmaydi. Vatan shunchalik katta va bag'rikeng ekanligini dalalardan to tog'largacha cho'zilganligini ifodalasa, unga bo'lgan muhabbatini mushfiq yurt deya izohlayotib, Yevropaga hatto “Seni tanimayman ham”, - deya murojaat qiladi.

Aleksandr Faynberg ijodida tarjima asarlari ham katta ahamiyatga ega, tarjimon sifatida o'zbek xalqining adabiyotga o'ziga xos adabiy nafas baxsh etgan shoirlari Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Omon Matjon va boshqa ko'plab ijodkorlarning she'rlarini rus tiliga mahorat bilan tarjima qilgan. Aslida tarjima qilish uchun shoirlar yoki yozuvchilar ruhiyati birlashishi kerak deyishadi. Tarjima-ancha nozik ish. Zero, Faynbergning o'zi ham bu haqida shunday satrlar bitadi:

Mag'rur yasha, mardona, mard bo'l,

Umring bo'lsin dunyoga ziynat.

Sharqona bayt atridan mast bo'l,

Tarjimaga qilmagin jur'at.

Rumiyning “Ma'naviy masnaviy” asari tarjimoni Odil Ikrom: “Bir zamon aytilgan badiiy so'z boshqa bir insonning qalb prizmasidan o'tadi ikkinchi insonning, qolaversa, bo'lak bir xalqning borliqqa munosabati ruhiyati bosib o'tgan tarixiy yo'li ila qo'shib qoriladi, ehtimol yangi jilvalarni namoyon qiladi. Tarjimon muayyan daho ko'tarilgan qavatning ma'lum bir qavatiga chiqadi. Aslida shu kifoya”, - deydi.

Kuylama u eski fonusni menga,

Pushkin yo Blok deb chekmagil firoq.

Ularning shu'lasidan mendan ko'p yiroq,

Kuylama u eski fonusni menga, -

deya boshlaydi o'zining “Eski fonus” she'rini. Bu shunchaki oddiy gap yoki quruq she'r emas, uning vazifasi shuki, shoir ushbu so'zlari orqali adabiyot maydonidauning o'z o'rnini bo'lishini xohlash va shunga intilish istagi yoxud u faqat “eski fonus” larni kuylab o'tmoqchi emas, u bu adabiyot maydoniga o'zining yorqin fonusi bilan kirib bormoqchi va kirib boryapti ham!

Yana bir she'rida shoir o'z fikrini shunday satrlar bilan fikrini ifodalaydiki, ular har bir kishiga tegishli. She'r shunday ta'sir ko'rsatadiki, har bir kishi o'zini beixtiyor so'roqlashga tushadi.



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> March, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

### Ayt-chi, orzu va ishonch bois

**Endi ortga qaytmaysan, nahot,  
Sohilingni tark etding, olis  
Mo‘jizaga intilding faqat?**

**Qayga? Misli qo‘l yetmas yolqin,  
Orzung ushalmaydi hech zamon.  
Mo‘jiza bu – doimo to‘lqin,  
Sohil esa bu – yerdir hamon.**

O‘zi o‘lsa o‘lar so‘zi o‘lmaydi,  
Hamisha barhayot, nasl shoirlar.  
Haqiqiy shoirning qabri bo‘lmaydi,  
Yurakka ko‘milar asl shoirlar!

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aleksandr Faynberg “Qoramaga qasida”, Tosh, 2001;
2. <https://yuz.uz/uz/news/aleksandr-faynbergning-yorqin-xotirasiga>;
4. Rumi “Ma’naviy masnaviy”, Tosh, 2021;
5. Muhammad Yusuf “Xalq bo‘l, elim”, Tosh, 2005.

